



“NASR UL-LAOLIY” DAN “NAZM UL-JAVOHIR” GACHA: HIKMATLARNING BADIY KENGAYISH JARAYONI”

Haydarova Xolida

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O‘zbek tili va adabiyoti universiteti

4-bosqich talabasi

haydarovaxolida073@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20624001>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Nasr ul-laoliy” va “Nazm ul-javohir” o‘rtasidagi manba-talqin munosabatlari tahlil qilinadi. Hikmatlarning nasriy shakldan she‘riy shaklga o‘tishi, ularning mazmuniy va badiiy kengayish xususiyatlari hamda Navoiy ijodiy yondashuvining o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Tadqiqot davomida hikmatlarning poetik transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan yangi ma‘no qatlamlari va estetik imkoniyatlar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Navoiy, hikmat Nasr ul-laoliy, Nazm ul-javohir, Sharq adabiyoti, badiiy talqin, poetik transformatsiya, manbashunoslik.


Аннотация: В данной статье анализируются источниковедческо-интерпретационные связи между сборниками «Наср ул-лаолий» («Россыпь жемчужин») и «Назм ул-джавохир» («Поэтические жемчужины»). Освещаются особенности перехода мудрых изречений (хикматов) из прозаической формы в поэтическую, их содержательное и художественное расширение, а также специфика творческого подхода Алишера Навои. В ходе исследования раскрываются новые смысловые пласты и эстетические возможности, возникшие в результате поэтической трансформации изречений.

Ключевые слова: Навои, хикмат, Наср ул-лаолий, Назм ул-джавохир, восточная литература, художественная интерпретация, поэтическая трансформация, источниковедение.

Abstract. This article analyzes the source-interpretation relationship between "Nasr ul-laoliy" and "Nazm ul-javohir." It highlights the transition of aphorisms (hikmats) from prose to poetic form, their contextual and artistic expansion, and the distinctive aspects of Navoiy's creative approach. Through the study, new layers of meaning and aesthetic possibilities arising from the poetic transformation of these wise sayings are revealed.

Keywords: Navoiy, hikmat (aphorism), Nasr ul-laoliy, Nazm ul-javohir, Eastern literature, artistic interpretation, poetic transformation, source studies.

Kirish





Sharq mumtoz adabiyotia hikmat janri insoniyatning ma'naviy tajribasi va axloqiy qarashlarini ifodalovchi muhim adabiy hodisalardan biri hisoblanadi. Hikmatlar qisqa shaklda katta ma'no ifodalash xususiyati bilan ajralib turadi. Ular asrlar davomida turli xalqlarning ma'naviy hayotida muhim o'rin egallab, axloqiy va falsafiy tafakkurning rivojlanishiga xizmat qilgan. Hikmat adabiyotining eng mashhur namunalari qatoriga Hazrat Ali hikmatlari kiradi. Ushbu hikmatlar keyinchalik turli to'plamlarda jamlanib, Sharq adabiy muhitida keng tarqalgan. Ularning ta'siri arab, fors va turkiy adabiyotlarda yaqqol namoyon bo'ladi. "Nasr ul-laoliy" hikmatlar majmuasi sifatida Sharq adabiyotida muhim o'rin tutadi. Keyinchalik ushbu hikmatlar Alisher Navoiy tomonidan "Nazm ul-javohir" asarida she'riy shaklda qayta talqin qilinadi. Natijada hikmatlar yangi badiiy qiyofa kasb etib, ularning ma'no va estetik imkoniyatlari yanada kengayadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Sharq madaniyatida hikmat nafaqat adabiy janr, balki ma'naviy kamolot vositasi sifatida ham qaralgan. Hikmatlar insonni ilmga, adolatga, sabr-toqatga va ezgulikka chorlaydi. Shu sababli ular ta'lim-tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Hikmatlarning asosiy xususiyati ularning lo'nda va mazmundor bo'lishidadir. Bir yoki ikki jumlada katta hayotiy tajriba ifodalanadi. Aynan mana shu xususiyat hikmatlarning uzoq asrlar davomida yashab qolishiga sabab bo'lgan. Arab adabiyotida shakllangan hikmat an'analari keyinchalik boshqa xalqlar adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Tarjima, sharhlash va qayta ishlash jarayonlari natijasida hikmatlar yangi madaniy muhitlarda yangi mazmun kasb eta boshladi.[3.98] "Nasr ul-laoliy" Sharq hikmat adabiyotining muhim namunalaridan biridir. Unda axloqiy, ma'rifiy va falsafiy mazmundagi hikmatlar jamlangan. Asarning asosiy qimmati undagi hikmatlarning umuminsoniy mazmunga egaligidadir. Asarda ilmning fazilati, adolatning ustuvorligi, sabr-toqatning ahamiyati, insoniylik va saxovat kabi masalalar markaziy o'rin egallaydi. Bu g'oyalar har qanday davr va jamiyat uchun muhim bo'lib qolmoqda.

"Nasr ul-laoliy"dagi hikmatlarning aksariyati qisqa shaklda bayon qilingan bo'lsa-da, ular chuqur ma'no qatlamlariga ega. Shu sababli keyingi davr ijodkorlari ushbu hikmatlarni kengroq talqin qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Alisher Navoiy Sharq adabiyotidagi hikmat an'analarni chuqur o'rgangan mutafakkir sifatida hikmatlarning badiiy imkoniyatlarini yaxshi anglagan. U hikmatlarni she'riy shaklda qayta yaratish orqali ularga yangi hayot baxsh etadi. "Nazm ul-javohir"da hikmatlar ruboiy shaklida talqin qilinadi. Ruboiy janri qisqa hajmda katta fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo'lgani uchun hikmatlar mazmuniga juda mos keladi. Navoiy hikmatlarning asosiy mazmunini saqlab





qolgan holda, ularga yangi poetik unsurlar qo'shadi. Natijada hikmatlar faqat nasihat emas, balki yuksak badiiy asarga aylanadi.[8.122]

“Nasr ul-laoliy”dan “Nazm ul-javohir”ga o'tish jarayonida hikmatlarning bir necha yo'nalishda kengayganini kuzatish mumkin. Nasriy hikmatlarda fikr qisqa va lo'nda shaklda ifodalangan bo'lsa, ruboiylarda bu fikr batafsilroq ochiladi. Muallif hikmatning ichki mazmunini kengaytirib, yangi ma'no qatlamlarini yuzaga chiqaradi. Nasriy hikmatlarda obrazlilik nisbatan kam bo'lsa, she'riy talqinda turli badiiy tasvir vositalari qo'llanadi. Tashbeh, istiora va ramzlar hikmatning ta'sir kuchini oshiradi. She'riy shakl hikmatlarning hissiy ta'sirini kuchaytiradi. O'quvchi nafaqat ma'lum bir fikrni angelaydi, balki uni his etadi. Navoiy hikmatlarni talqin qilish jarayonida ularga yangi falsafiy mazmun yuklaydi. Natijada hikmatlarning ma'naviy va axloqiy qimmati yanada ortadi.


“Nazm ul-javohir” Navoiy ijodiy mahoratining yorqin namunalaridan biridir. Muallif hikmatlarni oddiy tarjima qilish bilan cheklanmaydi. Ularni ijodiy qayta ishlaydi va yangi badiiy asarga aylantiradi. Bu jarayonda Navoiy turkiy she'riyatning barcha imkoniyatlaridan foydalanadi. Natijada hikmatlarning ta'sirchanligi va estetik qimmati yanada ortadi. Navoiy uchun hikmat faqat axloqiy pand emas, balki badiiy tafakkur mahsuli hamdir. Shu sababli uning talqinlarida axloqiy va estetik tamoyillar uyg'unlashadi.[4.47]

Xulosa

“Nasr ul-laoliy” va “Nazm ul-javohir” o'rtasidagi munosabat hikmatlarning badiiy taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Hikmatlarning nasriy shakldan she'riy shaklga o'tishi jarayonida ularning mazmuni boyigan, badiiy imkoniyatlari kengaygan va yangi estetik qiyofa yuzaga kelgan. “Nazm ul-javohir”ni “Nasr ul-laoliy”ning oddiy tarjimasi sifatida emas, balki hikmatlarning ijodiy va badiiy jihatdan qayta yaratilgan shakli sifatida baholash lozim. Aynan shu jihat asarning Sharq adabiyoti tarixidagi o'rnini belgilaydi. Shunday qilib, “Nasr ul-laoliy”dan “Nazm ul-javohir”gacha bo'lgan jarayon hikmatlarning badiiy kengayishi, poetik transformatsiyasi va ma'no jihatidan boyishining yorqin namunasi hisoblanadi. Bu esa Sharq adabiy tafakkurining uzviyligi va davomiyligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aziz Qayumov. She'riy durdonalar. // Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asariga bag'ishlangan tadqiqot. – Toshkent, 2014.
2. Aziz Qayumov. Navoiy mahorati. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1979.
3. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari: Buyuk shoirning hayoti va ijodi o'zining va zamondoshlari tasvirida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – 304 b.





4. Bertels. Navoiy va Jomiy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1965.
5. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1977.
6. Navoiy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016.
7. Ali ibn Abu Tolib. Nasr al-la'ali (Nasr ul-laoliy). Arab tilidagi hikmatlar to‘plami.
8. Nahj al-Balagha / tuzuvchi: Sharif ar-Roziy. – Bayrut: Dar al-Ma’rifa, 2007.
9. Alisher Navoiy. Nazm ul-javohir. // Mukammal asarlar to‘plami. – Toshkent: Fan nashriyoti.
10. Rashididdin Vatvot. Sad kalima. – Tehron, 2001.

